

**RAQAMLAR:**

- 2019-yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 2997,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 166,8 % ni tashkil etdi.


- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1628,3 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2997,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo (28,1 %) va transport (25,3 %) xizmatlari tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi  
(jami hajmga nisbatan), %**

**2019-yil yanvar-iyul oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**


Joriy yilning yanvar-iyul oylarida oldingi yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (204,7 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (156,3 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (84,3 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>Hajmi, mird. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2997,9</b>	<b>114,6</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	167,3	110,1
moliyaviy xizmatlar	503,6	166,8
transport xizmatlari	759,3	103,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	724,2	101,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	73,7	113,2
savdo xizmatlari	842,9	107,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	93,2	102,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	113,4	128,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	54,3	106,1
ijara xizmatlari	67,3	106,1
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	106,9	106,0
shaxsiy xizmatlar	94,8	100,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,6	101,3
boshqa xizmatlar	84,6	129,0


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2019-yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (166,8 %), boshqa xizmatlar (129,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (128,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (113,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019 - yil yanvar - iyul oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %.




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar - iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi 842,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 156,3 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019 - yil yanvar - iyul oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 70,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 22,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,8 % ni egallaydi.

### 2019 - yil yanvar - iyul oylarida transport xizmatlari tarkibi, %




Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari - 97,4 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,1 %, pochta va qurerlik xizmatlari – 0,5 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 167,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 110,1 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

### **2019 - yil yanvar - iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (96,7 %) telekommunikasiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.




Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 503,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 166,8 % ni tashkil etdi.


### **2019 - yil yanvar - iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi,%**



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,8 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 74,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 25,2 % ga to'g'ri keladi.

**2019 - yil yanvar - iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi,%**




2018 - yil yanvar - iyul oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 113,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar – iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 113,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.


### Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-iyul oylari bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 42,0 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-iyul oylarida 1628,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 305,1 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 112,7 % qayd etildi.

### 2019 - yil yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, (ming so`m)



*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*

*Mas'ul: U.Bardiyev*